Muhamedjanov Shovkat Muxrumovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti v.b.
Raimberdiev Irismamat Abdumanapovich
O‘sh davlat universiteti dotsenti

JISMONIY TARBIYA VA SPORT O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH MUAMMOLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.11086417

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport o‘qituvchilarini tayyorlash samaradorligini oshirishning muammoli masalalari haqida bayon etilgan

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya va sport, jismoniy ta’lim, kasbiy bilim va ko‘nikmalar, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik

Zamonaviy sotsiologiyada jismoniy ta’lim – insonlarning jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga tayyorgarligi bo‘yicha birgalikdagi faoliyatlari sifatida aniqlanadi. Jismoniy tarbiya gavda tuzilishi, gavda-harakat sifatlari va harakatlarni o‘z ichiga olgan inson faoliyatini ongli shakllantirish va qo‘llab-qo‘llashni ko‘zda tutadi. U insonlarning jismoniy holatini ta’minlash, ularning bo‘sh vaqtlaridan maqsadli foydalanish, jismoniy mashqlar bilan mashg‘ulot jarayonida muloqot uchun sharoit yaratish va sport faoliyatiga tayyorlashga mo‘ljallangan.

Jismoniy ta’lim o‘zining umummadaniy ahamiyati bilan quyidagi vazifalarni bajaradi: bilimlarni bir avloddan ikkinchisiga o‘tkazishni ta’minlagan holda, bilishga oid vazifani; insonlarni hayot faoliyatining aniq sharoitlariga moslashish rolini bajaruvchi ijtimoiy vazifani; jismoniy tarbiyaning o‘zini rivojlanishini ta’minlagan holda, madaniyatni tashkil etuvchi vazifa; insonning ijodiy salohiyatini ochib beruvchi, uning insonparvar, madaniyatlashtiruvchi va rivojlantiruvchi qobiliyatlari.

Oliy pedagogik ta’limni rivojlantirishning zamonaviy sharoitlarida, xususan, jismoniy tarbiya sohasida o‘qitishda faoliyat texnologik yondashuvini ishlab chiqish va joriy etish mutaxassislar tayyorlashning ta’lim jarayoni sifatini oshirishga yordam beradi [7].

Jismoniy ta’limning asosiy ahamiyati shundan iboratki, u nafaqat bilim beradi va shaxsning imkoniyatlarini rivojlantiradi, balki insonni jismoniy tarbiya, uning uchun nafaqat vosita, balki biror maqsadga erishishning instrumenti va shaxs madaniyatining bir qismi bo‘lgan aniq madaniy-tarixiy jarayonga olib kiradi [65]. Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayon nafaqat kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga, balki mutaxassis shaxsini shakllantirishga qaratilgan [3].

Oliy pedagogik ta’limda ta’lim olayotganlarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallash sifatida an’anaviy tushunish, ta’limga bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining kasbiy shakllanish jarayoni sifatida yanada keng qarashlar bilan siqib chiqariladi.

Shu sababli shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish jismoniy tarbiya bo‘yicha mutaxassisni tayyorlashni takomillashtirish omili sifatida qaraladi [5].

Pedagogika OTMlari, shu jumladan, jismoniy madaniyat fakultetlarida mutaxassislarni tayyorlash muammolari orasida o‘quv jarayonini ilmiy tashkil etish, o‘qitish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish asosida takomillashtirish muammosi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Mutaxassisning bo‘lajak faoliyat sharoitlariga moslashish vaqtini qisqartirish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Mavjud vaziyat va zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o‘zgaruvchan talablari o‘rtasida to‘planadigan ziddiyatlarni mutaxassislarni kasbiy-pedagogik tayyorlash tizimida tub o‘zgarishlarsiz bartaraf etib

bo‘lmaydi [11].

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikni tashkil etish, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik modeli, shuningdek, uzluksiz pedagogik amaliyot sharoiti davomida real faoliyatga adekvat bo‘lgan mutaxassis amaliy ishining modeli tayyorlanadigan kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarning shakllanishi kabi masalalarning barchasi tadqiq qilingan [2].

Biroq, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning to‘liq ta’rifi keltirilgan tadqiqotlar va OTM o‘qituvchisi faoliyatida – talabalarni o‘qitishning didaktik vazifalarini hal etish, sport-pedagogika fanlari va talabalarning sport mutaxassisliklarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun tayyor tavsiyalar yo‘q.

Barcha tavsiya etilgan modellar turli pozitsiyalar asosida qurilgan bo‘lib, bu oliy ta’limda o‘quv faoliyatini tashkil etishning barcha shakllari ichida pedagogik amaliyot o‘qituvchi shaxsini shakllantirish jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi [2].

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy ko‘nikmasining asosini tashkil etgan uzluksiz o‘quv-pedagogik amaliyot ham uning malakasini tavsiflaydi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda amaliyot, talabaning birinchi jiddiy kasbiy yo‘nalganligi va o‘qituvchi vazifalariga tayyorligi sifatida qaraladi [4].

Bilimlarni amaliyotda qo‘llash mutaxassisni o‘qitishning muhim kasbiy va amaliy bo‘g‘ini hisoblanadi, talabalarning uzluksiz amaliyoti talablarining ko‘rsatishicha, amaliy tayyorgarlik tizimi samaradorligining asosiy shartlari quyidagilar hisoblanadi: nazariy isbotlanganligi; ta’lim beruvchi va tarbiyaviy tavsifi; mashg‘ulotlar mazmuni va ularni tashkil etishga kompleks yondashish, ularning uzluksizligi va tizimliligi.

Ko‘pgina mualliflarning ta’kidlashicha, o‘quv amaliyotiga alohida e’tibor qaratish lozim. Kasbiy-pedagogik ko‘nikmani shakllantirish “mutaxassislik” fanlari tizimida talabalarni tayyorlash mazmunining yetakchi jihati hisoblanadi.

Kasbiy-pedagogik amaliyot jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi: mustahkamlash, chuqurlashtirish, nazariy bilimlarni boyitish, ularni jismoniy tarbiya tizimining turli bo‘g‘inlarida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning asosiy shakllarini o‘tkazish, nazorat qilish va baholashni ijodiy rejalashtirishning aniq vazifalarini yechishda qo‘llash; jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati ko‘nikmalarini va shaxsning kasbiy muhim ahamiyatga ega sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish; mustaqil kasbiy ta’lim olishda talabani tarbiyalash; tashkiliy, o‘quv-tarbiyaviy va jismoniy-sog‘lomlashtirish ishlarida yetakchi tajribalardan ijodiy foydalanishni o‘rgatish.

O‘quv amaliyoti o‘quv-bilish faoliyatining maxsus shakli bo‘lib, OTMlarning quyi kurslaridayoq talabalarning zarur kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarini, mustaqil ishlarini shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega [12]

O‘quv amaliyoti jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatiga adekvat bo‘lgan amaliy harakatlarning xilma-xil turlari va shakllari bilan ifodalanishi lozim.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, pedagogika OTMlarining jismoniy madaniyat fakultetlari o‘quv dasturida o‘quv amaliyoti juda kam: 7 foizdan 20 foizgacha o‘rin ajratilganligi aniqlandi. Vaqtning bunday hajmi bilan ko‘nikmalarni shakllantirishning yuqori samaradorligi imkoniyati haqida gapirishning hojati yuk. Pedagogik amaliyot va ularning kompleks qo‘llanilishini sezilarli darajada qiyinlashtiradigan inspeksiya tekshirishlari natijalariga urg‘u bergan holda, bitiruvchilarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonini boshqarish bo‘yicha amaliy tayyorgarlik darajasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Ba’zi xorijiy mualliflar ushbu davrning qiyinchiliklarini jismoniy tarbiya nazariyasining maktabda jismoniy tarbiyani o‘qitish amaliyoti bilan yetarlicha bog‘lanmagani bilan izohlaydilar.

“Yosh mutaxassislar, OTMlari bitiruvchilarining ko‘pchiligi “amaliyotdan olingan shok” deb nom olgan sindromdan aziyat

chekadilar. Inson hayotidagi barcha narsalar kabi, ushbu aziyatlar ham chuqur individual hususiyatga ega va turlicha jadallikda o‘tadi. Sub’ektiv his-tuyg‘ular qanchalik turli bo‘lishidan qat’i nazar, bu yoqimsiz tuyg‘u “ob’ektiv” 34 asabiylashtiruvchi – universitet va institutlarda deyarli yoki umuman maktabda dars o‘tish amaliyotini egallash uchun to‘g‘ri kelmaydigan bilimlar (nazariyalar ham) o‘qitilishi haqidagi tinimsiz shikoyatlar asosida kelib chiqadi. Ushbu shikoyatlar qisqa, ammo past baholashga olib keladi – bo‘lajak amaliyotchi universitet va institutlarda uning keyingi faoliyatiga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan nazariyalar bilan tanishtiriladi” [10].

Ushbu masalaning boshqa tadqiqotchilari yosh jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining ijtimoiy va pedagogik moslashuvi muammosining yechimini paydo bo‘lishiga oid yana bir qarashni bildirishadi. I.N.Resheten [13] OTMda ta’lim olish jarayonida pedagogik amaliyotni o‘tish davrining o‘zidayoq talabalarda asosiy kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishning ahamiyati yuqori ekanligini ta’kidlaydi. Talabalar amaliyoti o‘quv jarayonining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Maktab sharoitiga moslashish uchun kasbiy mahorat va ko‘nikmalarni egallashdan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z kasbiga muvofiq keluvchi shaxsiy sifatlarni egallashi va ularni mustahkamlash, ko‘p holatlarda pedagogik faoliyat mashg‘ulotlarining motivlarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik faoliyati shartlari uni amalga oshirayotgan shaxsga yuqori axloqiy-psixologik talablarni qo‘yadi.

M.Ya.Vilenskiy [6], jismoniy tarbiya mutaxassislarining ta’lim jarayonini shaxsni qayta tarbiyalashga, uning individualligini rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tarbiya qadriyatlarini berish sifatida aniqlaydi.

“Jismoniy tarbiyada shaxsni o‘zini-o‘zi anglashi – jismoniy tarbiyaga bo‘lgan munosabat, o‘z maqsadlarini tanlash, unda o‘zini va boshqalarni ko‘rsatish, o‘z oldiga vazifalar qo‘yish, ularga muvofiq ravishda maqsadli va samarali harakatlanishni ko‘zda tutadi; ta’lim jarayonining va shaxsni rivojlanishining har bir bosqichida uning ehtiyojlari, imkoniyatlari, 35 intilishlariga ko‘p darajada ko‘maklashuvchi shaxsni mavjud bo‘lgan bunday qadriyatlar va maqsadlarni tanlash qobiliyatini tavsiflaydi” [6].

Talabalarning jismoniy va sport faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining sog‘lomlashtiruvchi samarasiga pedagogik ta’sir qilishning umumiy yo‘nalishi talabalarning sog‘liqni bebaho boylik sifatida deyarli to‘liq inkor qilishlari bilan to‘qnashadi. Bu borada bo‘lajak kasbiy faoliyat motivlarining jismoniy tarbiya bilan bog‘liqligi aniqlanmagan.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, kasbiy tayyorgarlik va bo‘lajak mutaxassislarni tarbiyalashning ko‘p sonli vazifalarini o‘quv fani va shaxsni to‘liq rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan jismoniy tarbiyasiz hal etish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bette K.H. Die Trainerrolle im Hochleistungsport: Sistem und rollentheoretische. Uberlegungen zur Sozialfigur des Trainers. - Sankt Augustin: Vertlag Hans Richarz. - 1984. - P 128.

2. Абдулина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего образования: Уч. пособие для спец. высших уч. заведений. — М.: Просвещение, 1990.— 140-144с.

3. Алексеенко О.И., Даниленко Т. В., Кирий Е. В. Проблемы обучения и воспитания студентов в современном вузе. // Современное педагогическое образование. №3. -2018. - С.3-4.

4. Асубаев Б.А., Абдукаримов С. Педагогическая практика-основа формирования профессиональных умений и навыков у будущего специалиста физической культуры и спорта. //Физическая культура, спорт – наука и практика. -№ 3.

-2012. –С.24-25

5. Белых С.И. Теоретические и методические основы профессиональной подготовки будущих преподавателей физической культуры и спорта в личностно ориентированной системе физического воспитания. - Донецк, 2020. - 57 с.

6. Виленский М.Я., Сафин Р.С. Профессиональная направленность физического воспитания студентов педагогических специальностей. — М.: Высшая школа, 1989. - 157с.

7. Костюченко В.Ф. Формирование профессиональнопедагогических умений в курсе спортивно-педагогических дисциплин: Уч. пособие. - СПб., 2001. - С.6-17.

8. Курамшин Ю.Ф., Попов В.И. Теория и методика физической культуры. - СПб, 1999. - С.36-37.

9. Майнберг Э. Основные проблемы педагогики спорта. — М., 1995.-С.28

10. Махмутов, М. И. Избранные труды: в 7 т. Т. 6 / сост. Д. М. Шакирова. — Казань: Магариф — Вакыт, 2016. — 375 с.

11. Производственная (педагогическая) практика студентов вузов физкультурного профиля: учебно-методическое пособие / П. П. Тиссен., С. С. Коровин., Л. М. Степанова., Е. М. Голикова., М. В. Морозов— Оренбург : Изд-во ОГПУ, 2015. — 96 с.

12. Решетень И.Н. Формирование профессионально-педагогических умений у студентов в процессе обучения в институте физической культуры. — М., 1981. -С.7.